

Universitetda Navruz Cup shou bo'lib o'tdi

Universitetimizda an'anaviy o'tkaziladigan bu yilgi "Navro'z Cup"da 16 ta talabalar jamoasi ishtirok etdi.

24 aprel kuni, TTPUda talabalar hamda professor-o'qituvchilar jamoasi o'rtasida Navruz Cup futbol shou o'yini o'tkazildi. Professorlar jamoasi universitetning turli kafedralari professor-o'qituvchilari hamda xodimlaridan, talabalar jamoasi esa TTPUda talabalar o'rtasida o'tkazilgan Navro'z kubogi sohibidan tashkil topdi.

Do'stona va taasurotlarga boy bo'lgan o'yinda talabalarning "Dortmund" jamoasi g'alabasi bilan yakunlandi.

G'olib jamoaga esdalik sovg'alar, kubok va medallar topshirildi.









